YOSHLARNING OILAVIY MUNOSABATLARIGA USTANOVKASINING IJTIMOIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

N.R.Mamatova[1]

1. ADU Psixologiya va pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) mnafisaxon@inbox.ru, https://

Mas'ul muallif: Mamatova Nafisaxon Ro'ziboyevna, ADU Psixologiya va pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) mnafisaxon@inbox.ru, https://.

e-mail: mnafisaxon@inbox.ru

Received: 16 Noyabr 2026
Accepted: 21 Noyabr 2026
Published: 26 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Mamatova, N. R. YOSHLARNING OILAVIY MUNOSABATLARIGA USTANOVKASINING IJTIMOIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI / N. R. Mamatova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 384–387.

Annotatsiya. Maqolada yoshlarda reproduktiv ustanovkalarining ijtimoiy-psixologik asoslari, yoshlarning nikoh va oila kabi azaliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarini ilmiy tadqiqot asosida aniqlangan va ularning psixologik tahlili haqida atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: aholi, yoshlar, reproduktiv xulq-atvor, rank ko'rsatkichi, reproduktiv madaniyat, yoshlar siyosati, tug'ilish, o'lim, oila, nikoh, depopulyatsiya, reproduktiv ustanovka.

СОЦИАЛЬНО - ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УСТАНОВКИ МОЛОДЕЖИ НА СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ

Аннотация. В статье подробно рассмотрены социально-психологические основы репродуктивного установка у молодежи, выявление на основе научных исследований отношения молодежи к таким древним ценностям, как брак и семья, их психологический анализ.

Ключевые слова: Население, молодежь, репродуктывное поведение, индикатор ранга, репродуктивное культура, молодежная политика, рождаемость, смертность, семья, брак, депопуляция, репродуктывное установка.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE INTRUCTION IN FAMILY RELATIONS OF YOUNG PEOPLE

Abstract. The article covers the socio-psychological foundations of reproductive instruction in young people, the determination of the attitudes of young people towards age-old values, such as marriage and family, on the basis of scientific research, in detail about their psychological laying.

Keywords: the population, young people, reproductive behavior, color indicator, reproductive culture, birth, mortality, family, marriage, depopulation reproductive instruction.

Kirish. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hamda yoshlar dunyoqarashidagi yangilanishlar oilaviy munosabatlarga bo'lgan munosabatning ham o'zgarishiga olib kelmoqda. Xususan, yoshlarning nikoh, oila qurish, oilaviy mas'uliyat, er-xotin o'rtasidagi huquq va majburiyatlar, farzand tarbiyasi hamda oilaviy barqarorlik haqidagi tasavvurlari turli ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida shakllanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning oilaviy munosabatlarga nisbatan ustanovkalarini o'rganish, ularning mazmuni, shakllanish mexanizmlari va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Psixologiya fanida ustanovka tushunchasi shaxsning muayyan obyekt, hodisa yoki vaziyatga nisbatan shakllangan ichki tayyorgarligi, munosabati va xulq-atvor yo'nalishini ifodalaydi. U insonning idrok etishi, fikrlashi, hissiy munosabati va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy munosabatlarga nisbatan ustanovka esa yoshlarning oila, nikoh, er-xotinlik munosabatlari, ota-onalik, oilaviy majburiyatlar va qadriyatlarga nisbatan shakllangan bilimlari, e'tiqodlari, hissiy baholari hamda xulq-atvor yo'nalishlarining yaxlit tizimidir. Yoshlarning oilaviy munosabatlarga nisbatan ustanovkalari, avvalo, kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarining o'zaro ta'siri asosida shakllanadi. Kognitiv komponent yoshlarning oila va nikoh haqidagi bilimlari, tasavvurlari, qarashlari hamda e'tiqodlarini qamrab oladi. Masalan, oilaning vazifalari, er-xotinning huquq va majburiyatlari, oilaviy munosabatlarda o'zaro hurmat va ishonchning ahamiyatini anglash shular jumlasidandir. Emotsional komponent shaxsning oila, nikoh va oilaviy hayotga nisbatan hissiy munosabatini ifodalaydi. Bunda oilaga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat, mehr-muhabbat, ishonch, xavotir va mas'uliyat hissi namoyon bo'ladi. Xulq-atvor komponenti esa yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligi, oilaviy muammolarni hal qilishga munosabati, murosaga kelish, muloqot qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorligini anglatadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar ham yoshlarning oilaviy munosabatlar haqidagi ustanovkalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etiladigan oilaviy hayot modellari, turli munosabatlar va ideal oila haqidagi tasavvurlar yoshlarning kutishlari hamda talablariga ta'sir qilishi mumkin. Biroq virtual muhitdagi munosabatlarni real oilaviy hayot bilan tenglashtirish noto'g'ri kutishlar, qoniqmaslik va noroziliklarni yuzaga keltirishi ehtimoli mavjud. Shu sababli yoshlarda axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, real hayotiy vaziyatlarni to'g'ri baholash ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Yoshlarning oilaviy munosabatlarga nisbatan ustanovkalarining yana bir muhim xususiyati ideal oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlarning shakllanganligidir. Yoshlar kelajakdagi oilasini ko'pincha mehr - muhabbat, o'zaro tushunish, moddiy farovonlik, ishonch va hurmatga asoslangan holda tasavvur qiladilar. Biroq ideal tasavvurlar bilan real oilaviy hayot talablari o'rtasida ayrim tafovutlar mavjud bo'lishi mumkin. Oilaviy hayotda turli xarakter, ehtiyoj, qiziqish va dunyoqarashga ega bo'lgan ikki shaxsning o'zaro moslashuvi talab etiladi. Shu sababli yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari real hayotiy vaziyatlar va psixologik bilimlar bilan uyg'unlashishi lozim.

Xususan, ota-onalik ustanovkalari va ularning farzand tarbiyalash uslublari muammosi rossiyalik qator izlanuvchilarning asarlarida qayd etilgan (A.E. Lichko, 1979; A.A. Bodalev, A.A. Stolin, 1989; E.G. Eydemiller, V.V. Yustitskiy, 1999). Ota onalikning eng muhim sifatlariga avvalo - protektsiya yoki farzandlarini tarbiyalash uchun sarflanadigan kuch, vaqt va e'tiborning me'zoni, bolaning turli ehtiyojlarini qondirish darajasi, intizomga chaqirish bilan bog'lik talablar darajasi, ta'qiqlovlar yoki bolaning xulqini jilovlash uchun ishlatiladigan sanktsiyalar tizimi kiradi. Ushbu mezonlar asosida turli oilalarda ota-onalarning o'z farzandlarini tarbiyalash uslublarini farqlash mumkin.

V.M. Karimova (1987, 1994) o'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi, o'zbeklarning oilaviy munosabatlar psixologiyasining o'ziga xos tomonlari haqida salomog'li tadqiqot ishlarini olib borgan. Muallif tadqiqotlari davomida o'zbek xalq og'zaki ijodida, islom dinining muqaddas manbalarida, sharq mutafakkirlari asarlarida, taniqli pedagog va psixolog olimlar asarlarida nikoh va oila, oilaviy hayot muammolariga doir materiallarni izchil o'rganib, psixologik tahlillari asosida bir qator ilmiy g'oyalarni ilgari surgan. Muallifning fikricha, oilaviy - ijtimoy tasavvurlar murakkab va ko'p komponentli psixologik tizimlar bo'lib, ularning tarkibiga oilaning umumiy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlarga xos tasavvurlar, erkak va ayol fazilatlari, ularning oilaviy munosabatlardagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi, reproduktiv tasavvurlar va boshqa ijtimoiy-psixologik tushunchalar kiradi. Oilaviy - ijtimoiy tasavvurlar asosan shaxs ijtimoiylashuvining dastlabki davridanoq shakllana boshlaydi va uning o'zgarishida ijtimoiy-psixologik omillar, ta'lim tarbiya, oila muhiti, milliy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, shaxsning muloqot muhiti va shaxsiy faolligi muhim rol o'ynaydi. Oilaviy - ijtimoiy tasavvurlar har bir oila a'zosining bilish tizimida shakllangan ong tarkiblaridan iborat bo'lib, shaxsning ijtimoiy va individual tajribasi sifatida uning oilaviy hayotga tayyorligini ta'minlaydi. V.M. Karimova tadqiqotlarida oilaviy ijtimoiy tasavvurlar shakllanishida bola shakllanayotgan oila va undagi o'zaro munosabatlar xarakteri muhim ahamiyat kasb etishi, ya'ni oilaning katta yoki kichikligi, to'liq yoki noto'liqligi, jinsiy munosabatlar haqida va reproduktiv tasavvurlar xarakterni belgilashi va shaxsiy ijtimoiy moslashuvlar yo'nalishida aks etishi aniqlangan. O'zaro munosabatlar asosini tashkil etgan oila a'zolarining o'rniga oid tasavvurlar va ularning differentsiatsiyasi o'zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo'lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy-ma'naviy muhiti, milliy qadriyatlar, an'analar, rasm - rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog'liqligi asoslangan. Muallif nikoh yoshigacha bo'lgan yoshlar bilan oilali er-xotinlarning oilaviy ijtimoiy tasavvurlari o'rtasidagi asosiy farqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini ko'rsatib o'tgan.

Tadqiqotda o'spirinlik yoshidagi jami 405 nafar o'spirinlar, ulardan 350 nafari talaba qizlar va 55 nafari talaba yigitlar jalb etildi. «Yoshlarda reproduktiv ustanovkalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari»ni o'rganish bo'yicha mualliflik ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi yordamida yoritishga harakat qildik. Reproduktiv munosabatning kognitiv komponenti ma'lum miqdordagi bolalarning tug'ilishiga, tug'ilajak bolaning afzal ko'rgan jinsiga, tug'ilish orasidagi intervallarga va boshqalarga yo'naltirilgan holda ifodalanadi. Xulq-atvor komponenti esa bola tug'ish motivlarining intensivligini, kuchini yoki zaifligini tavsiflaydi. Agar reproduktiv munosabatlar oilaning bolalarga bo'lgan miqdoriy ehtiyojini ifodalasa, unda bu ehtiyojning sifat ko'rsatkichi bu «reproduktiv motivlar» tushunchasi bilan belgilanadi va bu shaxsning aqliy holatini anglatadi, bu shaxsni ma'lum miqdordagi bolalar tug'ilishi orqali har xil shaxsiy maqsadlarga erishishga undaydi. Reproduktiv motivlar bir vaqtning o'zida munosabat tuzilishining bir qismi (ularning xulq-atvori, rag'batlantiruvchi komponenti) sifatida namoyon bo'lishi ham kuzatildi. Reproduktiv motivlar yoki bola tug'ish motivlari odatda iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik motivlarga bo'linadi.



1 - rasm Farzandlar sonining ko‘payishiga hissa qo‘shuvchi omillar natijalari ko‘rsatkichi. (n=108 nafar turmush qurgan talabalar, n=295 nafar turmush qurmagan talabalar)

«Hozirgi kunda sizningcha, oilada bolalar sonining ko‘payishiga qaysi omil hissasini qo‘shishi mumkin?» deb berilgan savolga turmush qurgan talabalarning 49,07%i uy-joy sharoitlarining yaxshilanishi farzandlar sonining ko‘payishiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkinligini, 16,67%i ish haqining oshishi farzandlar sonining ko‘payishiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkinligini, 13,89%i oilada va jamiyatda ko‘p farzandli bo‘lish ayollar obro‘sining oshishiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkinligini, 20,37%i kelajakka ishonch farzandlar sonining ko‘payishiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkinligini ta’kidlaganlar. Turmush qurmagan talabalarda esa 34,58%i uy-joy sharoitlarining yaxshilanishi farzandlar sonining ko‘payishiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkinligini, 22,03%i ish haqining oshishi farzandlar sonining ko‘payishiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkinligini, 18,64%i oilada va jamiyatda ko‘p farzandli bo‘lish ayollar obro‘sining oshishiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkinligini, 24,74%i kelajakka ishonch farzandlar sonining ko‘payishiga o‘z hissasini qo‘shishi mumkinligini ta’kidlaganlar. So‘rovnomaga kiritilgan «Oilada farzandlar ko‘p bo‘lishiga qanday qaraysiz?» deb berilgan savolga turmush qurgan talabalardan olingan javoblar natijalari navbatdagi 1 - jadvalda keltirib o‘tilgan.

1-jadval

Oilada farzandlar ko‘p bo‘lishiga munosabatlar ko‘rsatkichi (n=108 nafar turmush qurgan talabalar)

№	Ta’kidlar	Mutlaqo to‘g‘ri		To‘g‘ri		Noto‘g‘ri		Mutlaqo noto‘g‘ri	
		absolyut qiymat	foiz	absolyut qiymat	foiz	absolyut qiymat	foiz	absolyut qiymat	foiz
1	Oilada farzandlar ko‘p bo‘lishi shart emas	6	5,5	17	15,74	40	37,04	45	41,7
2	Oilada 1 nafar bola bo‘lsa yetarli	7	6,48	9	8.33	41	37,96	51	47,22
3	Oilada bolalar sonining qanchalik ko‘p bo‘lishi yashash sharoitini yaxshilash imkonini beradi (Iqtisodiy motiv)	47	43,52	43	39,81	10	9,26	8	7,41
4	Avlodlar o‘rtasidagi aloqa va avlodlarning davom ettishini ta’minlaydi (ijtimoiy motiv)	51	47,22	48	44,44	5	4,63	4	3,70
5	Hayotni hissiy	52	48,14	44	40,74	4	3,70	8	7,41

№	Ta'kidlar	Mutlaqo to'g'ri	To'g'ri	Noto'g'ri	Mutlaqo noto'g'ri				
	boyitadi								

Ushbu ma'lumotlarda ko'rinib turibdiki, oilaning reproduktiv funksiyasi bajarilishi uchun oilada shart - sharoit yaxshi bo'lishi, ya'ni farzandlarning har tomonlama ta'minlanishi uchun barcha imkoniyatlarning bo'lishi respondentlar tomonidan yuqori foizlarda ahamiyatli deb belgilangan. Tahlilga ko'ra, oilada ko'p bola bo'lishi shart emas deyilgan tasdiqqa turmush qurgan talabalarning 41,7 (45 nafar) foizi mutlaqo noto'g'ri va 37,04 foizi noto'g'ri (40 nafar) deb javob berdilar. Turmush qurmagan talabalardan olingan javoblar natijalari navbatdagi 2 - jadvalda keltirib o'tilgan.

Bundan ko'rinadiki, bizning o'zbek xalqimiz oilaviy munosabatlarni qadrlaydi, oilani muqaddas deb hisoblaydilar. Bu holatda ham yoshlarning shaxs va jamiyat maqsadi nuqtayi nazaridan maqsadlarga erishishida oilaga suyanishini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida yoshlarning oila qurishi va avlodning davom ettirishi uchun ham jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar va stereotiplar o'zbek oilasi hamda o'zbek ayollarining reproduktiv an'analari bilan bevosita bog'liqdir.

Xuddi shunday ustanovka navbatdagi bandda «Oilada bolalar sonining qanchalik ko'p bo'lishi yashash sharoitini yaxshilash imkonini beradi» degan tasdiqqa 52,88% respondentlar mutlaqo to'g'ri va 41,02% respondentlar to'g'ri deb tasdiqladilar. Bunday natijalar hozirgi zamon oilasining reproduktiv funksiyasining ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Mavluda Fayziyeva, Azim Zabborov Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. "Yangi asr avlodi" 2007. № 4, 2023 "Psixologiya " Ilmiy jurnal Научный журнал* Scientific journal 179

[2] Репродуктивная культура : тенденцции развития и механизми трансляции в современном российском обществе Беляева, Мария Алексеевна Екатеринбург, 2013.- 388 с

[3] Karimova V. Oila psixologiyasi // Darslik. - M.: 2007. - T. 107- bet.

[4] O`zbekiston yoshlari: Muammolar va istiqbollar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bolalar Jamg'armasi (UNICEF) ning O'zbekistondagi vakolatxonasi 2020 yil Xisoboti